



BUXORO DAVLAT
PEDAGOGIKA
INSTITUTI

OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI
BOSHLANG'ICH TA'LIM KAFEDRASI

THE MINISTRY OF HIGHER EDUCATION
SCIENCE AND INNOVATION
BUKHARA STATE PEDAGOGICAL
INSTITUTE
DEPARTMENT OF PRIMARY EDUCATION



**“ZAMONAVIY TA'LIM-
UCHINCHI
RENESSANS POYDEVORINI
QURISH OMILI SIFATIDA”**

ilmiy metodik tavsiyalar va maqolalar

TO'PLAMI

**“MODERN EDUCATION IS
AS AN ASPECT OF
BUILDING THE
FOUNDATION OF THE
3RD RENAISSANCE”**

COLLECTION

*of scientific methodological
recommendations and articles*

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

**OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA‘LIM
FAKULTETI
BOSHLANG‘ICH TA‘LIM KAFEDRASI**

**“ZAMONAVIY TA‘LIM-UCHINCHI RENESSANS
POYDEVORINI QURISH OMILI SIFATIDA”**

**NOMLI ILMIY METODIK TAVSIYALAR VA
MAQOLALAR TO‘PLAMI**

2024-yil 15-aprel

BUXORO – 2024

Tahrir hay'ati:

- | | |
|---------------|---|
| B.B. Ma'murov | – Buxoro davlat pedagogika instituti rektori |
| Sh.N. Murodov | – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor |
| Z.L.Umurov | – O'quv uslubiy bo'lim boshlig'i |
| G.R.Akramova | – Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i |
| M.M. Tilavova | – Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti dekani |
| M.J. Saidova | – Boshlang'ich ta'lim kafedrası mudiri |
| F.M.Qosimov | – Boshlang'ich ta'lim kafedrası professori |
| U.S.Amonov | – Boshlang'ich ta'lim kafedrası dotsenti |
| N.B. Adizova | – Boshlang'ich ta'lim kafedrası dotsenti |
| N.B. Adizova | – Boshlang'ich ta'lim kafedrası dotsenti |
| G.E.Saidova | – Boshlang'ich ta'lim kafedrası dotsenti |
| R.X.Jumayev | – Boshlang'ich ta'lim kafedrası dotsenti |
| O.Sh. Ahmadov | – Boshlang'ich ta'lim kafedrası dotsenti |
| S.R.Akramova | – Boshlang'ich ta'lim kafedrası katta o'qituvchisi |

Mas'ul muharir:

M.J. Saidova – pedagogika fanlari doktori, professori

Taqrizchilar:

B.R. Adizov – pedagogika fanlari doktori, professor

G.V.Izbullayeva – pedagogika fanlari doktori, professor

To'plamda boshlang'ich sinf o'qituvchi va oliy ta'lim professor o'qituvchilarining ilmiy izlanishlari, tajriba almashish mazmuni, sohalarda amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilish va bu boradagi takliflarni ishlab chiqish bo'yicha ilmiy-amaliy va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Mazkur to'plamdagi materiallar mazmuni bugungi kunda boshlang'ich ta'lim jarayonida innovatsion va noan'anaviy faoliyatni samarali tashki etish, zamonaviy bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun keng mazmundagi imkoniyatlarni yaratish uchun metodik xazira bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur to'plamga kiritilgan maqolalar va tezislarning mazmuni, statistik ma'lumotlar hamda bildirilgan fikr va mulohazalarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

TEXNOLOGIYA DARSLARIDA QOG'OZDAN AMALIY ISHLAR BAJARISH ORQALI O'QUVCHILARNING IJODKORLIGINI OSHIRISH METODIKASI

D.R.Jo'rayeva

Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini texnologiya darslarida qog'ozdan amaliy ishlar bajarish orqali o'quvchilarning ijodkorligini oshirish mazmuni bilan tanishtirish metodikasi

АННОТАЦИЯ. Данной статье представлена методика ознакомления учащихся начальных классов с содержанием повышения творческих способностей учащихся путем выполнения практических работ из бумаги на уроках технологии

SUMMARY. This article is a methodology for familiarizing elementary school students with the content of improving student creativity by performing practical work from paper in technology classes

Kalit so'zlar: qog'ozning tarixi, qog'ozning turlari, o'quvchi ijodkorligini shakllantirish, gigienik talablar, qaychi bilan ishlash, o'quvchining ijodkorligini oshirish va qiziqtirish, qog'oz, qaychi, ijodkorlik, qiziqish, gigieniya, amaliy ish

Ключевые слова: история бумаги, виды бумаги, формирование творчества школьника, гигиенические требования, работа с ножницами, повышение творческих способностей и интереса школьника, бумага, ножницы, творчество, любопытство, гигиена, практическая работа

Key words: history of paper, types of paper, formation of student creativity, hygienic requirements, work with scissors, increase and interest the student's creativity, paper, scissors, creativity, interest, hygiene, practical work

Jamiyat doimo yuqori ma'lumotli, ijodkor, tashabbuskor, yangicha fikrlash qobiliyatiga ega, mustaqil nostandart qarorlar qabul qilishga qodir insonlarga muhtoj. Hozirgi vaqtda umumiy ta'lim maktabining oldida o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash sifatini oshirish bo'yicha jiddiy vazifalar turibdi. Boshlang'ich maktabda ta'limning keyingi bosqichlari uchun asos yaratiladi. Uning oldida o'ta aniq ta'lim maqsadlari va vazifalari turibdi. Maktabning asosiy vazifalaridan biri bolalarni har tomonlama rivojlantirishga asos solish, ravon, ongli, mazmunli o'qish, hisoblash, savodli yozuv, rivojlangan nutq va madaniyatini shakllantirish xulq-atvorli qilib tarbiyalash.- o'quvchilarning dunyoga yaxlit, o'zaro bog'liq bo'lgan qarashlarini shakllantirishdir. Hozirgi vaqtda boshlang'ich maktablarda o'qitish va tarbiyalashni tashkil qilish jarayonida fanlararo integratsiya muammosiga yana bir bor katta e'tibor berilmoqda. Texnologiya darslarida bilamizki, qiziqarli mashg'ulotlar, amaliy ishlarni bajaramiz. Texnologiya darslarida doimiy ravishda o'quvchilarda mehnat qurollari bo'ladi. Qog'oz, qaychi, kley, qalamlar, plastilin, rangli qog'ozlar doimiy ravishda mavjud bo'ladi. Mavzuga moslab bir dars oldin o'qituvchi texnologiya darsida nimalar kerakligini aytib yuboradi. Mavzuga doir kerakli materiallar olib kelinadi. O'qituvchi mavzuni yoritib o'quvchilarni qiziqishini

orttirishi zarur. Texnologiya darsida bolaning qobiliyati borligi yoki u nimalarga qiziqishini bilib olsa bo'ladi. Qog'oz bu asosan o'simlik tolalaridan tayyorlanadigan yupqa material. Turli xil jinsdagi daraxt yog'ochi va bir yillik o'simlik sellyulozasi hamda yog'och massasidan ishlanadi. Qog'ozning turlari: repro, ofset yoki bosma qog'oz, saten yoki porloq qog'oz, yopishtiruvchi qog'oz, qoplangan yoki qoplangan qog'oz, sabzavotli yoki uglerodsiz qog'oz, qo'l qog'ozi, karton, qog'oz kartochkasi, qayta ishlangan qog'oz, ekologik yoki biologik qog'oz, to'qima qog'ozi, gazeta nashrlari kabi turlari mavjud. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni mehnatga tayyorlash ularning qiziqishlari, moyilliklar va imkoniyatlarga asoslangan qo'l mehnati hisoblanadi. Shu munosabat bilan mehnat ta'limi jarayoni o'quvchilarda ushbu yosh uchun bilim, mehnat, axloqiy, estetik, iqtisodiy-ekologik va aqliy imkoniyatlarni aniq mehnat jarayonlarida rivojlantirishga qaratilgan, natijada ularni mehnatga tayyorlashni keyingi sinflarda davom ettirilishi uchun zarur aloqadorlik hosil qiladi. Qo'l mehnati jarayonida bolalar asosan ishlab chiqarish texnologiyalar chiqindilari (qog'oz, karton, sitm, yog'och, gazlama va boshqalar) bilan tabiiy va sun'iy xomashyolar (maxsusloy, yog'ochvaplastmasslar, plastilin, yelim va boshqalar) va xalq hunarmandchilik mahsulotlari, tayyorlash uchun mahalliy xomashyolar bilan elektor, radiotexnika to'plamlari va hokazo bilan ishlashga o'rganadilar. Bularning hammasi o'quvchilarga qo'l asbobi bilan ishlash, har xil xomashyolardan foydalanishning ma'lum tajribasini to'plashga imkon beradi, bu esa mehnatning qadrini va ma'nosini tushinishga, mehnat kishilarda hurmatda bo'lishga, mehnatning va kasbning u yoki bu turiga qiziqishni shakllantirishga yordam beradi. Qo'l mehnati mehnatning har bir turiga qarab o'zining pedagogik imkoniyatlarini hosil qiladi. Uning ahamiyati ham boshqa mehnat turlari ahamiyati kabi u yoki bu bosqichda o'zgarib turadi. Qo'l mehnatining boshqa mehnat turlari singari tarbiyaviy imkoniyati keng. Ayniqsa, bolalarni aqliy va axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan o'stirishda qo'l mehnati ta'limining roli ko'p qirralidir. Qo'l mehnati o'zining qiziqarliligi va amaliy ishlarga jalb qilish jarayonlari bilan o'quvchilarning bilim olishlariga intilishlarini qo'zg'ovchi nafaqat vositasi, balki uning manbai, omili hamdir. Texnologiya fani o'qituvchisi ta'lim-tabiya samaradorligini oshirishda, avvalambor, o'zining yuksak mahoratiga, ish mahorati va qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. O'qituvchi mahorati qanchalik yuksak bo'lsa bolalarga o'z fanini chuqur singdira oladi. Texnologiya fani o'qituvchisi qo'l mehnati mashg'ulotlarida bir qancha usullardan foydalanishi mumkin. Masalan, texnologiya darsida o'tiladigan har bir mavzuga doir nazariy tushunchalar amaliy ishlab bilan o'z tasdig'ini topishi kerak. Bu o'z navbatida, o'sha mavzuning qiziqarli, foydali tomonlari va jamiyatda aynan o'sha mehnatning roli kattaligini, aynan shu mavzu orqali bolalar kelajakdagi hunar yoki kasb tanlashdagi qarorini mustahkamlashiga da'vat etadi.

Gigienik talablar bu, avvalambor, bor bolani tozalikka o'rgatadi. Kley ishlatayotgan paytda ham uni qanday ishlatish kerakligini o'qituvchi tushuntiradi. Ko'p va o'z o'rniga qo'yilmagan yelim bola qo'lida yopishqoq bo'lib ishlashiga xalaqit beradi. Kiyimlariga ham yopishib ust boshini kir qilishi mumkin. Ota-onalar ham farzandlariga sifatli plastilinlardan xarid qilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Sifati yaxshi bo'lgan plastilin qo'lga yopishmaydi va o'zidan rang chiqarmaydi. Qaychini ishlatayotganda o'qituvchi o'quvchiga uni ehtiyotkorlik bilan ishlatishini, qaychini og'zi ochiq qoldirmaslik kerakligini aytib bergan bo'lishlari lozim. O'quvchi ijodkorligi kreativ dunyo qarashlari boy bo'lishi lozim. Bunda albatta o'qituvchining o'rni katta. 1-sinf texnologiya fanidagi "Kuz ne'matlari" mavzusida kompozitsiya yasash. Jamoa ishi mavzusini ko'rib chiqamiz. Bunda bizga kerak bo'ladi: rangli qog'ozlar, qaychi, kley, qoraqalam. Dorskaga o'qituvchi Kuz ne'matlari bo'lmish mahsulotlar rasmini ilib chiqadi. Kuz qanday fasl va unda qanday mahsulotlar pishgan bo'ladi shu haqida birinchi ma'lumot beradi va o'quvchilarning fikri so'raladi. Demak, mavzuimizga moslab olma va nok mevasini yasashni boshlaymiz. O'quvchi sabr toqatli bo'lishi yoki bir ishni boshlab oxirigacha tugatish kerakligi o'rgatiladi. Rangli qog'ozlarimizga olma shaklini chizib olamiz, chizib olingan olma suratidan yana shuncha qilib 7 dona qirqib olamiz. Shakllarni birin-ketin qanotchasini qanotchasiga birlashtirib yopishtirib olamiz. 8 dona olma shaklining bir-biriga yopishishidan olma shakli hosil boladi. Nok shaklini ham ham ana shunday kesib, yopishtirishlar orqali yasab olamiz. O'quvchilarning qiziqishiga qarab uy vazifasi tariqasida boshqa shakllarni yasab kelishlari mumkin. Rangli qog'ozlardan turli xil ko'rinishdagi shakllar yasasa ham yoki biror kattaroq kompozitsiya yaratsa ham bo'ladi. O'quvchilarning qiziqishlarini shu tariqa rivojlantirib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Xulosa qilib aytish joizki, har bir ota-ona o'z farzandining qiziqishlariga e'tibor berishlari lozim. Farzand texnologiya darslariga qiziqish bildirib, biron bir shakllarni, mevalarni va hokazo shu kabi buyumni ota-ona bilan birga yasashni xohlasa hech qachon rad javob bermasliklari kerak. Bolaning qobiliyatini eng avvalo ota-ona so'ng esa o'qituvchi anglaydi. Bolaning qobiliyatiga qarab uni kasb va hunarga yo'naltirsak, kelajakda o'z ishinig ustasi bo'lib yetishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Milliy o'quv dasturi "Texnologiya"
2. Ismoilova R.R. "Texnologiya" 1-sinf uchun darslik, "Novda". Toshkent-2023.
3. Ismoilova R.R. "Texnologiya" 2-sinf uchun darslik, "Novda". Toshkent-2023.
4. Ismoilova R.R. "Texnologiya" 3-sinf uchun darslik, "Novda". Toshkent-2023.
5. Ismoilova R.R. "Texnologiya" 4-sinf uchun darslik, "Novda Edutainment". Toshkent-2023.
6. Kberleninka.ru"Texnologiya darslarida qo'l mehnatidan foydalanish" talablari-maqolasi .